

Mutaxassislarning malaka tarkibiga bo'lgan talablar (ishlarning rahbari va bajaruvchilari)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27 oktyabr 2018 yildagi №880-sonli qarorining 11-bandiga asosan mutaxassislarga (ishlarning rahbari va bajaruvchi) quyidagi talablar qo'yiladi:

maxsus tayyorgarlikka va tegishli ixtisoslik (yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saklash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish) bo'yicha kamida uch yil ish stajiga ega bo'lishi;

quyidagi malakalar bo'yicha ma'lumotga va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak:

a) loyihalashtirish:

ishlarning rahbari va bajaruvchisi "Muhandislik" (elektrotexnika, elektronika, elektromexanika, radiotexnika, telekommunikatsiya, informatika va axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish va boshqarish, muhandislik kommunikatsiyalarini qurish, yong'in xavfsizligi shuningdek, yong'inni o'chirishning suvli qurilmalari uchun - suv ta'minoti va suv chiqarish inshootlari) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerak;

b) yong'indan darak berish, qo'riqlash signalizatsiyalarini, qo'riqlash-yong'indan saqlash va yong'in haqida xabar berish signalizatsiyalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ulargatexnikxizmat ko'rsatish:

ishlarning rahbari "Muhandislik" (elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lishi kerak;

ishlarni bajaruvchilar elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya yo'nalishlari bo'yicha 3-razryaddan past bo'lmagan tegishli malaka bo'yicha oliy, kasb-hunar-texnik ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

v) yong'ini o'chirish(suvli,gazli,kukunli va boshqa)qurilmalarni montaj qilish,sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish:

ishlarning rahbari "Muhandislik" (elektroenergetika, elektronika va mikroelektronika, avtomatlashtirish va boshqarish, radiotexnika, telekommunikatsiya) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bulishi kerak;

ishlarni bajaruvchilar quyidagi yo'nalishlar: qo'lda payvandlovchi elektr payvandlovchi (gaz bilan payvandlovchi) 5-razryaddan past bo'lmagan, sanitariya-texnik uskunalarni montaj qiluvchi (sanitariya-texnik tizimlar va asbob-uskunalarni montaj qiluvchi) 4-razryaddan past bo'lmagan, qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalari elektromontyori (elektr asbob-uskunalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor, aloqa apparatlari va qurilmalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rstish bo'yicha elektromontyor, radioelektron apparatlar va priborlarni montaj qiluvchi) 3-razryadsan past bo'lmagan, avtomatik nazorat qilish, rostlash va boshqarish priborlari, apparatlari va tizimlarini sozlovchi (nazorat-o'lchov priborlari va avtomatika sozlovchisi) 5-razryaddan past bo'lmagan tegishli malaka bo'yicha oliy, kasb-hunar-texnik ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.